

## O‘ZBEKISTONDA “YASHIL IQTISODIYOT” NI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

*Hayitov Jamshid Xolboyevich,  
SamISI, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi  
Usmonov Murodbek Dusmurot o‘g‘li,  
SamISI, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasi asistent-stajjori  
Saparaliyeva Gavhar Hamza qizi,  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi  
[gavharsaparaliyeva@gmail.com](mailto:gavharsaparaliyeva@gmail.com)*

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari, tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirish istiqbollari, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish haqida malumotlar berib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi, mamlakat iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish yo‘nalishlari, tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirish istiqbollari, Iqlim o‘zgarishlari oqibatlariga moslashish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, chiqindilarni boshqarish, “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish.

**Abstract.** This article provides information on the stages of formation and development of the "Green Economy" in Uzbekistan, the prospects for the development of renewable energy sources, the development of financial and non-financial mechanisms for the development of the "green economy".

**Keywords:** Strategy for the transition to a "green economy" in Uzbekistan, directions for increasing the energy efficiency of the country's economy, prospects for the development of renewable energy sources, Adaptation to the consequences of climate change, rational use of water resources, waste management, development of financial and non-financial mechanisms for the development of the "green economy".

**Аннотация.** В данной статье представлена информация об этапах становления и развития «Зеленой экономики» в Узбекистане, перспективах развития возобновляемых источников энергии, а также развитию финансовых и нефинансовых механизмов развития «Зеленой экономики».

**Ключевые слова:** стратегия перехода к «зеленой экономике» в Узбекистане, направления повышения энергоэффективности экономики страны, перспективы развития возобновляемых источников энергии, адаптация к последствиям изменения климата, рациональное использование

*водных ресурсов, обращение с отходами. , Разработка финансовых и нефинансовых механизмов развития «зеленой экономики».*

### 1.O'zbekistonda “Yashil Iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasi.

O'zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o'tish zarurati milliy iqtisodiyotda iste'mol qilinayotgan tabiiy resurslardan foydalanib ishlab chiqarilayotganligi, sanoatning jadal sur'atlarda rivojlanishi oqibatida atrof muhitning ifloslanishi, suv tanqisligi, Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligi bilan izohlanadi. O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, tarkibiy o'zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish, ichki va global jarayonlar hamda muammolarni hisobga olishni taqazo etadi. O'zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning uzoq muddatli kompleks chora-tadbirlar tizimi BMT tashabbusi bilan 2030-yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohang ishlab chiqilgan. Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash omillaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi. O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolda “yashil iqtisodiyot”ga o'tish strategiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarga muvofiqlik;
- resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish;
- iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish ;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun “yashil” vositalar va yondashuvlarni qo'llash ustuvorligi;
- milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish va ko'rsatkichlarni yaxshilash , “yashil” ish o'rinlarini yaratish, aholining faravonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish;
- resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash.

### 2.Mamlakat iqtisodiyotining energiya samaradorligini oshirish yo'nalishlari

Energiya samaradorligi iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda energiya manbalaridan oqilona foydalanish , ishlab chiqarish sektori rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirish hamda energiya tejashning muhim omili bo'lib , bu o'z navbatida energiya xavfsizligiga , ish o'rinlari yaratilishiga, aholi faravonligining o'sishiga va mamlakatning rivojlanishi uchun jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. 2023-yilning qish davrida O'zbekistonda minglab odamlar anomal sovuq havo vaqtida qariyb ikki hafta davomida ishonchli energiya ta'minotisiz yashashga majbur bo'ldi. Yildan yilga O'zbekiston aholisining soni ko'payishi bilan energiyaga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Pirovardida mamlakatning energiya zaxiralariga o'sib borayotgan talabni



mamlakatning barqaror rivojlanishini va iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvi doirasidagi majburiyatlarini bajarilishini ta'minlagan holda , qayta tiklanadigan manbalar hisobidan qondirish zarur.

### **3.Tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirish istiqbollari**

O'zbekistonda tiklanadigan energiya manbalarining juda katta zaxiralari mavjud. Ushbu manbalar tarkibida quyosh va shamol energetikasi katta istiqbolga ega . Hozirgi zamon quyosh elementlari qaysi sharoitda ishlatilishiga qarab turli xil yarim o'tkazgichli materialdan ishlab chiqarilayotgan va inson ehtiyoji uchun elektr manbai sifatida qo'llanilayotgan quyosh elementlari aksariyati kremniy materialidan tayyorlanmoqda. Bunga asosiy sabab , hozirgi zamon kishilar ehtiyoji uchun ko'p qo'llaniladigan mikroelektron asboblarni tayyorlash texnologiyasining asosi kremniydir.

So'nggi yillarda respublikamizning iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohasida energiya samaradorligini yuksaltirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.Jumladan, Respublikada iqtisodiyot barqaror o'sishini ta'minlashga va aholining faravonlik darajasini oshirishga, yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan talab-ehtiyojni uzluksiz qanoatlantirishga qaratilgan neft-gaz, elektr energetika, ko'mir, kimyo, qurilish industriyasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi amalga oshirilmoqda.

### **4.Iqlim o'zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish yo'llari**

Respublika hududi o'ziga xos tuproq va iqlim sharoitiga ega bo'lib, tabiiy drenajning yetishmasligi, yer osti suvlari minerallashuvi darajasining yuqoriligi natijasida bir qator hududlar "birlamchi sho'rlangan". Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik va boshqa antropogen omillarning salbiy ta'siri natijasida ayrim hududlarda yerlarning "ikkilamchi sho'rlanishi" kuzatilib , 45.7% sug'oriladigan yer maydoni turli darajada sho'rlangan.

**Suv resurslaridan oqilona foydalanish.** Bugungi kunda O'zbekistonda mamlakatni barqaror rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan (1998-yil 14-dekabr). Unda O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirishni birdan-bir strategik maqsad bosqichi quyidagicha belgilangan: O'zbekistonning kelajak avlodi uchun yer-suv va boshqa tabiiy resurslaridan foydalanishni saqlash maqsadida oqilona samaraligini oshirmoq darkor.

Hozirgi kunda suv muammolari eng asosiy va murakkab ilmiy-texnik muammolardan biri hisoblanadi.Shu sohada YUNESKO tomonidan keng Xalqaro gidrologik dastur tuzilgan bo'lib, bu dasturni amalga oshirish uchun yuzdan ortiq mamlakatlardan olimlar ishtirok etishmoqda. Suv resurslarini xalq xo'jaligida katta miqyosda ishlatish suv muvozanatini o'zgartiradi va suv obyektlarining ifloslanishiga olib keladi. Bu ta'sir nafaqat daryolarga, ko'llarga va dengizlarga, balki dunyo

okeaniga ham tegishlidir. Taniqli golland olimi, sayohatchi Tur Xeyrdal birinchi marotaba Atlantik okeanida “Kon Tiki” qayig’ida Afrikadan Amerikagacha suzib o’tganda dengiz suvining zilol va tozaligi uni butun sayohat davomida hayratga solganligini va undan nihoyatda zavqlanganligini aytadi. Suv biosferaning asosiy elementlaridan hisoblanganligi tufayli, suv resurslarini boshqarishga ekologik jihatdan yondashish zarur.

**Chiqindilarni boshqarish.** Hisob-kitoblarga ko’ra O’zbekistonda qattiq maishiy chiqindilar hosil bo’lishining yillik hajmi prognozi 14-14.5 mln. tonna atrofida baholanadi. Aholining o’rtacha 1.5% ga ko’payish sur’atini hisobga olganda esa, ushbu ko’rsatkich 2028-yilga kelib 16-16.7 mln. tonnaga yetishi mumkin. Mutaxassislarning ma’lumotlariga ko’ra, Respublika hududlarida har yili, 100 mln. tonna sanoat va 30 mln.m<sup>2</sup> maishiy chiqindilar ishlab chiqariladi. Uning morfologik tarkibi o’rganilganda, chiqindilar tarkibida 5-10% qog’oz, yog’och chiqindilari; 20-45% oziq-ovqat; 3% metal; 5-10% to’qimachilik chiqindilari, teri, rezina; 2% shisha, shuningdek, plastmassa mahsulotlari chiqindilari tashlab, ko’mbi yuboriladi. Qattiq maishiy chiqindilarni yig’ib olish, hamda saralash va chiqindixonada ko’mbi bo’yicha vazifalar taqsimlangan holda majburiyatlarni uchastkalar bo’yicha taqsimlash zarur.

Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarishni sohasida davlat va xususiy sektor sherikchiligi loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish mahalliy organlari- mahalla fuqarolar yig’inlarining ham o’rni katta. Har bir xonadonda yashaydigan odamlar soni haqida, ko’p qavatli uylar aholisi uchun qattiq maishiy chiqindilarni vaqtinchalik to’plash punktlarini maqsadga muvofiq joylashtirish masalasida aynan mahalla fuqarolar yig’inlari xodimlari aniq ma’lumot taqdim etishlari mumkin. O’z navbatida, atrof-muhitni muhofaza qilish uchun chiqindilarni boshqarishga jiddiy e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** O’zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlari yildan-yilga yangicha uslublarda amalga oshirilmoqda. Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish hamda tarkibiy o’zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ichki va global jarayonlar hamda muammolarni hisobga olishni taqazo etadi. Shu borada bir qator qarorlar, loyihalar ishlab chiqilib, bitimlar imzolanmoqda. Jumladan, iqlim o’zgarishi bilan bog’liq o’sib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida 2015-yil 12-dekabrda Fransiya poytaxtida o’tkazilgan BMT Iqlim o’zgarishi doiraviy konvensiyasi konferensiyasining 21-sessiyasida Parij bitimi qabul qilindi. O’zbekiston esa 2017-yil 19-aprelda BMT ning Nyu-Yorkdagi Bosh Qarorgohida “O’zbekiston-Parij” bitimini imzoladi. Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi ham 2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishini ham “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlash omillaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi. Shu bilan birga,

chiqindilarni boshqarish va suv resurslaridan oqilona foydalanish to'g'risida ham bir qator prezident qarorlari joriy etilgan. Mana shunday islohotlar hamda atrof-muhit xavfsizligi, havo ifloslanishini oldini olish, yashil iqtisodiyot rivojlanishiga muhim bir turtki bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vahobov Abdurahim Vasikovich, Xajibakiyev Shuhrat Xo'jayorovich. "Yashil iqtisodiyot". "Zebo print" Toshkent-2021. 225-243-betlar.
2. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022 O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.
3. "Yashil iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati va O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" nomli maqola, muallif: Yormonqulova Nargiza Ikromjon qizi Qo'qon Universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi
4. Davlat va xususiy sektor sherikchiligi asosida qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha qo'llanma. Toshkent-2013, Mualliflar: Gulchehra Nasirlyeva, Naira Mavlonova, Latifjon Umurzoqov, Narzullo Oblomurodov, Shuhrat Abdullayev.
5. X.I.Valiyev, Sh.O.Muradov, B.M.Xolbayev. "suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish" To'ldirilgan 2-nashri.-T.: "Fan va texnologiya", 2010,168 bet
6. N.T.Toshpo'latov, dotsent, D.B.Qodirov, dotsent , "Qayta tiklanadigan energiya manbalari" O'quv qo'llanma.